

“UNUTILISH HUQUQI”: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON QONUNCHILIK TAHLILI

Zaribboyeva Ruxshona Hamidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes va sud himoyasi fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19061713>

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the "right to be forgotten" — a new institution of human rights in the digital age. By conducting a comparative study of the European Union's experience (GDPR), the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the Law "On Personal Data," the author identifies gaps in national legislation and puts forward several proposals. Furthermore, the article suggests mechanisms for applying a "balance test" to maintain an equilibrium between the interests of a "public figure" and the "privacy of personal life."

Keywords: Right to be forgotten, personal data, digital privacy, public figure, balance test, de-indexing, GDPR, privacy.

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli asrda inson huquqlarining yangi instituti — "unutilish huquqi"ning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqining tajribasi (GDPR) va O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi hamda “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonunini qiyosiy o‘rganib, milliy qonunchilikdagi bo’shliqlarni ko’rsatib o‘tiladi hamda bir qancha takliflar igari suriladi. Maqolada "jamoat figurasi" va "shaxsiy hayot siri" o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bo‘yicha "balans testi"ni qo‘llash mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Unutilish huquqi, shaxsga doir ma’lumotlar, raqamli maxfiylik, jamoat figurasi, balans testi, indeksatsiyadan chiqarish, GDPR, shaxsiy hayot daxlsizligi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet xizmatlari va elektron platformalarning keng qo‘llanilishi shaxsiy ma’lumotlar muomalasini keskin oshirdi. Shaxsiy ma’lumotlar turli tizimlarda yig‘ilishi, saqlanishi va qayta ishlanishi natijasida ularning daxlsizligini ta’minlash dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqdi. Raqamli axborot texnologiyalari rivojlanib borgani sayin, shaxsiy ma’lumotlarga bo‘lgan hujumlar hamda ularning xavfsizligi masalalariga oid bo‘lgan vaziyatlar ham ortib bormoqda¹. Shu jarayonda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlar shakllanmoqda. Raqamli maxfiylikning eng yangi va

¹ <https://minjusttraining.uz/news/raqamli-davrdaxshaxsiy-malumotlarni-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>

munozarali institutlaridan biri bu – “Unutilish huquqi” (Right to be Forgotten) dir. Ushbu huquq ilk bor 2014-yilda Yevropa Ittifoqi Adliya sudining “Google Spain” ishi bo‘yicha qarorida shakllantirilgan². Mazkur ish ispaniyalik fuqaro tomonidan qo‘zg‘atilgan bo‘lib, u 1998-yildagi gazeta nashrida e‘lon qilingan (ko‘chmas mulkni xatlash haqidagi) bildirishnoma hanuzgacha Google qidiruvi orqali topilayotgani uning shaxsiy hayot daxlsizligini buzayotganidan shikoyat qilgan³. Xo‘sh, “Unutilish huquqi” nima o‘zi? **“Unutilish huquq” (Right to be Forgotten) – shaxsning qidiruv tizimlaridan va internet manbalaridan o‘zi haqidagi eskirgan, noaniq yoki ahamiyatini yo‘qotgan ma‘lumotlarini o‘chirishni talab qilish huquqi hisoblanadi**⁴. “Unutilish huquq” o‘zida ikkita asosiy elementni qamrab olgan. Birinchisi, shaxsiy ma‘lumotlarni o‘chirish huquqi hamda ikkinchisi, qidiruv tizimlaridan ma‘lumotlarni olib tashlash huquqi hisoblanadi.

“Unutilish huquqi” bevosita shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi tamoyili bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun** bilan tartibga solinadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 31-moddasida *“Har kim o‘z sha‘ni va obro‘sig a qilinan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalalanish va turar joy daxlsizligi huquqiga ega” deb qat‘iy belgilab qo‘yilgan*⁵. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida internet tarmog‘ida joylashtirilgan ma‘lumotlar uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi va keng ommaga ochiq bo‘lishi mumkin. Bu esa ayrim hollarda shaxsning sha‘ni, qadr-qimmatini va shaxsiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli unutilish huquqi shaxsga o‘ziga oid ma‘lumotlar ustidan nazorat qilish imkonini beradigan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur huquq orqali shaxs internet tarmog‘ida joylashtirilgan eskirgan, noto‘g‘ri yoki ahamiyatini yo‘qotgan ma‘lumotlarni o‘chirish yoki qidiruv tizimlaridan olib tashlashni talab qilishi mumkin.

“Unutilish huquqi” qachon va qanday holatlarda amal qilishini tahlil qilib o‘tsak. GDPR ning 17-moddada unutilish huquqi qo‘llaniladigan aniq holatlarni bayon qiladi. Shaxs quyidagi hollarda shaxsiy ma‘lumotlarini o‘chirish huquqiga ega:

² [^]113} Google Spain SL, Google Inc. v Agencia Española de Protección de Datos (AEPD), Mario Costeja González (2014), C-131/12. (Yevropa Ittifoqi Adliya sudi qarori).

³ <https://www.carter-ruck.com/blog/google-v-spain-eu-backs-right-to-be-forgotten/>

⁴ Kiber huquq. O‘quv qo‘llanma. Abdixakimov Islombek Bahodir o‘g‘li. – T.: TDYU nashryoti, 2025. – 405-b.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir).

- Shaxsiy ma'lumotlar tashkilot ularni yig'gan yoki qayta ishlagan dastlabki maqsadlar uchun endi kerak bo'lmasa;
- Tashkilot ma'lumotlarni qayta ishlashda shaxsning roziligiga tayanayotgan bo'lsa va ushbu shaxs o'z roziligini qaytarib olsa;
- Tashkilot qonuniy manfaatlarga tayanayotgan bo'lsa, shaxs bunga e'tiroz bildirsa va tashkilotda qayta ishlashni davom ettirish uchun ustuvor qonuniy asoslar bo'lmasa;
- Tashkilot ma'lumotlarni bevosita marketing maqsadlarida qayta ishlayotgan bo'lsa va shaxs bunga e'tiroz bildirsa;
- Tashkilot shaxsning ma'lumotlarini noqonuniy ravishda qayta ishlagan bo'lsa;
- Tashkilot qonuniy qaror yoki majburiyatni bajarish uchun ma'lumotlarni o'chirishi shart bo'lsa;
- Tashkilot bolaning shaxsiy ma'lumotlarini axborot jamiyati xizmatlarini taklif qilish uchun qayta ishlagan bo'lsa⁶.

Xalqaro huquqiy asoslar va xorijiy tajriba:

Shuni ta'kidlash joizki, raqamli makon chegara bilmasligi sababli, unutilish huquqi nafaqat milliy darajada, balki transmilliy miqyosda amal qiluvchi universal mexanizmlarni talab etadi. Internet tarmog'idagi ma'lumotlarning global xarakteri ushbu huquqni turli huquqiy tizimlarda turlicha talqin qilinishiga va amaliyotda o'ziga xos to'siqlarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, unutilish huquqining mazmun-mohiyatini va uning O'zbekiston qonunchiligidagi istiqbollarini chuqurroq anglash uchun, avvalo, ushbu institut shakllangan va rivojlangan xalqaro tajribaga, xususan, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlar amaliyotiga nazar tashlash lozim. Unutilish huquqining zamonaviy qiyofasi **2014-yil 13-mayda Yevropa Ittifoqi Adliya sudi** (Court of Justice of the European Union – CJEU) tomonidan chiqarilgan C-131/12-sonli qaror bilan shakllandi. Mazkur ishning mazmuni quyidagicha edi: Ispaniya fuqarosi Mario Kosteja Gonsales 1998-yilda uning ko'chmas mulki qarzlari tufayli kimoshdi savdosiga qo'yilgani haqidagi e'lon "La Vanguardia" gazetasining raqamli arxivlarida saqlanib qolganidan va Google qidiruvida chiqib kelayotganidan shikoyat qiladi. U o'z qarzlarni allaqachon to'laganini va bu ma'lumot uning obro'siga asossiz zarar yetkazayotganini ta'kidlaydi⁷.

Sud ushbu ish bo'yicha quyidagi fundamental xulosalarni berdi:

⁶ <https://gdpr.eu/right-to-be-forgotten/>

⁷ <https://archive.epic.org/privacy/right-to-be-forgotten/>

1. **Qidiruv tizimi – bu ma’lumotlar subyekti:** Sud Google shunchaki "passiv ko’prik" emas, balki shaxsiy ma’lumotlarni saralovchi va tizimlashtiruvchi "**operator**" (controller) ekanligini tasdiqladi.

2. **Shaxsiy manfaatlarining ustuvorligi:** Sud qaroriga ko’ra, agar ma’lumotlar eskirgan, noto’g’ri yoki jamoat uchun ahamiyatini yo’qotgan bo’lsa, shaxsning maxfiylik huquqi qidiruv tizimining tijoriy manfaatidan hamda uchinchi shaxslarning ushbu ma’lumotni topish huquqidan ustun turadi.

3. **Manbaning o’chirilmasligi:** Muhim jihati shundaki, sud gazetadagi asl maqolani o’chirishni talab qilmadi (chunki u qonuniy chop etilgan), biroq Google’ga ushbu maqolaga olib boruvchi havolalarni (indeksatsiyani) o’chirish majburiyatini yukladi⁸.

Yevropa sudining qarori natijasida [Google](https://www.google.com) milliondan ortiq olib tashlash so’rovlarini qabul qildi va 285 000 dan ortiq qidiruv natijalarini olib tashlashga majbur bo’ldi. Ushbu qaror raqamli asrda “unutilish huquqi” tushunchasining yaratilishi uchun tayanch bo’ldi desak mubolag’a bo’lmaydi. Shunki ham ta’kidlab o’tish joizki, “**Google Spain**” ishi faqatgina qidiruv tizimlariga tegishli edi. Biroq raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan barcha sohalarda (banklar, tibbiyot, ijtimoiy tarmoqlar) shaxsiy ma’lumotlarni o’chirish mexanizmi zarur bo’ldi. Natijada, 2016-yilda qabul qilingan va 2018-yilda to’liq amalga kiritilgan Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR) unutilish huquqini universal qonuniy kuchga ega qildi. va GDPRning 17-moddasi uchun konseptual asos bo’lib xizmat qildi. Ushbu modda shaxsga o’z ma’lumotlarini o’chirishni talab qilish uchun 6 ta aniq asosni belgilab berdi (yuqorida sanab o’tilgan 6 ta asos)⁹. Bizga ma’lumki, “unutilish huquq” mutloq huquq emas. GDPR ning 17-moddasida ushbu huquq qo’llash bilan bog’liq bo’lgan quyidagi 5 ta istisnoli holatlarni ta’kidlab o’tgan. Ya’ni:

- so'z va axborot erkinligi huquqini amalga oshirish uchun;
- nazoratchi bo'ysunadigan Ittifoq yoki a'zo davlat qonunlari tomonidan qayta ishlashni talab qiladigan yuridik majburiyatga rioya qilish yoki jamoat manfaatlarini yo'lida yoki nazoratchiga berilgan rasmiy vakolatlarni amalga oshirishda bajarilgan vazifani bajarish uchun;
- sog'liqni saqlash sohasida jamoatchilik manfaatlarini ko'zlab;
- jamoat manfaatlarini ko'zlab arxivlash, ilmiy yoki tarixiy tadqiqot maqsadlari yoki statistik maqsadlar uchun, agar 1-bandda ko'rsatilgan huquq

⁸ <https://gdpr.eu/right-to-be-forgotten/>

⁹ <https://gdpr-info.eu/art-17-gdpr/>

ushbu qayta ishlash maqsadlariga erishishni imkonsiz qilishi yoki jiddiy ravishda buzishi mumkin bo'lsa;

- qonuniy da'volarni qo'zg'atish, amalga oshirish yoki himoya qilish uchun¹⁰

Yevropa sudi tomonidan chiqarilgan ushbu qaror hamda GDPR ning 17-moddasiga “unutilish huquqi” ning kiritilishi xorijiy davlatlarning milliy qonunchiligiga o'zgartirish kiritish uchun turtki bo'lib xizmat qildi. Xususan, **Rossiya va Xitoy** qonun chiqaruvchi organlari foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish huquqiga ega internet kompaniyalari ustidan qoidalarni kuchaytirish choralarini ko'rdilar. Rossiyada Prezident Vladimir Putin 2014-yil may oyida Yevropa Adliya sudining qarorini eslatuvchi "unutilish huquqi"ni ta'minlaydigan qonunni imzoladi. Xitoyda esa Butunxitoy xalq vakillari kongressi davlatning veb-saytlar va tarmoq operatorlarini uzoq vaqtdan beri tartibga solishini rasmiylashtiradigan va kuchaytiradigan kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun loyihasini e'lon qildi. Biroq, shundan keyin Yevropa Ittifoqi qarori ham, Rossiya qonunchiligi ham internet kompaniyalari va ochiq va senzurasiz internetni himoya qiluvchilar tomonidan tanqidga uchradi. Yevropa sudining qaroridan so'ng, **Garvard huquq professori Jonatan Zittrain** [New York Times gazetasiga](#) bergan intervyusida ushbu qaror *“juda real muammoga, ya'ni hamma narsa endi bizning doimiy yozuvlarimizga kiritilganiga yomon yechim”* ekanligini aytdi. Xuddi shunday, **Oksforddagi Media huquqlari markazi va Xalqaro media advokatlari assotsiatsiyasi vakili Galina Arapova** [Russia Beyond the Headlines](#) nashriga Rossiya qonunchiligi *“konstitutsiyaga zid ... va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konventsiyasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlarga mos kelmaydi”*, deb ta'kidlab o'tgan¹¹.

O'zbekiston qonunchiligi tahlili:

Yangi tahrirdagi **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasining 1-qismida**¹² *“Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega”* degan norma belgilab qo'yilgan. Ya'ni, Konsitutsiyada har bir shaxs o'zining shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligini himoya qilinishi hamda kafolatlanishining boshlang'inch darajasini belgilab bergan. Bundan tashqari ushbu moddaning 3-qismida *“Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning*

¹⁰ <https://gdpr-info.eu/art-17-gdpr/>

¹¹ <https://jolt.law.harvard.edu/digest/russias-right-to-be-forgotten-and-chinas-right-to-be-protected-new-privacy-and-security-legislation>

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir).

yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega". Ushbu huquq "unutilish huquqi"ning konstitutsiyaviy poydevori hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligida bu huquq to'g'ridan-to'g'ri "**unutilish huquqi**" nomi bilan kiritilmagan bo'lsa-da, "**Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida**"gi Qonunning 30-moddasida subyekt o'z ma'lumotlari to'liq bo'lmagan, eskirgan, noaniq bo'lgan hollarda ishlov berishni vaqtincha to'xtatib turishni, 17-moddaga muvofiq esa maqsadga erishilganda yoki rozilik chaqirib olinganda ularni **yo'q qilishni** talab qilish huquqiga egaligi belgilangan. Biroq, bu yerda "**Jamoat manfaati**" va "**Shaxsiy sir**" o'rtasidagi **ziddiyat** yuzaga keladi. Agar biror amaldor korrupsiya uchun sudlangan bo'lsa va 10 yildan keyin bu ma'lumotni internetdan o'chirishni so'rasa, uning "unutilish huquqi" jamiyatning "axborot olish huquqi"dan ustun keladimi? Kiber huquq doktrinasi bu savolga "balans testi" (balancing test) orqali javob beradi: agar shaxs "jamoat figurasi" (public figure) bo'lsa, uning o'tmishi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolishi kerak, oddiy fuqarolar uchun maxfiylik ustuvorlik qiladi¹³.

O'zbekiston Respublikasining "**Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida**"gi Qonunida ma'lumotlarni "yo'q qilish" (deletion) tushunchasi berilgan. Biroq, xalqaro tajribada (masalan, Google Spain ishida) unutilish huquqi ko'pincha ma'lumotni butunlay o'chirishni emas, balki uni qidiruv tizimlari natijalaridan olib tashlashni, ya'ni indeksatsiyadan chiqarishni anglatadi. Milliy qonunchiligimizda qidiruv tizimi operatorlarining (Google, Yandex va h.k.) mas'uliyati va ularga murojaat qilish tartibi aniq belgilanmagan. Shuningdek, Qonunning 30-moddasiga ko'ra, ma'lumotlar "eskirgan" yoki "noaniq" bo'lsa, ularni tuzatish yoki o'chirishni talab qilish mumkin. Ammo "eskirganlik" tushunchasi huquqiy jihatdan juda mavhum. **Misol uchun:** *Shaxs 15 yil oldin sodir etgan ma'muriy huquqbuzarligi haqidagi xabar bugun uning ishga joylashishiga xalaqit bersa, bu ma'lumotni "eskirgan" deb hisoblash mumkinmi? Amaldagi qonunchilik bu savolga aniq javob bermaydi, bu esa "balans testi"ni qo'llashda qiyinchilik tug'diradi.*

"Unutilish huquqi"ni amaliyotda qo'llashdagi eng murakkab masala — shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi va jamiyatning axborot olish huquqi o'rtasidagi muvozanatni topishdir. Bu muvozanatni aniqlashda asosiy mezon bo'lib "**jamoat figurasi**" (**public figure**) tushunchasi xizmat qiladi. Xalqaro huquqiy doktrinaga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga ega, biroq shaxsning jamiyatdagi mavqeyi oshgani sayin, uning shaxsiy hayoti daxlsizligi doirasi shunchalik torayib boradi. Jamoat figuralari ikki toifaga bo'linadi:

¹³ Kiber huquq. O'quv qo'llanma. Abdixakimov Islombek Bahodir o'g'li. – T.: TDYU nashryoti, 2025. – 153-b.

1. **Tabiiy (mutloq) jamoat figuralari:** Davlat arboblari, siyosatchilar va yuqori lavozimli amaldorlar. Ularning o'tmishi, moliyaviy holati va xulq-atvori jamiyat uchun doimiy qiziqish uyg'otadi, chunki bu ma'lumotlar ularning xalq oldidagi mas'uliyati va ishonchliligini baholash uchun zarur.

2. **Vaqtinchalik jamoat figuralari:** Ma'lum bir shov-shuvli voqea (masalan, yirik jinoyat yoki favqulodda hodisa) sababli diqqat markaziga tushgan shaxslar.

Xulosa qilib aytganda, "unutilish huquqi" raqamli asrda inson qadr-qimmatini himoya qilishning ajralmas qismidir. O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida belgilangan shaxsiy hayot daxlsizligi kafolati internet tarmog'ida ham o'zining amaliy ifodasini topishi kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchiligimizda ushbu huquqning elementlari mavjud bo'lsa-da, uni amalga oshirishning aniq protsessual mexanizmlari, ayniqsa, qidiruv tizimlari bilan ishlash tartibi ishlab chiqilmagan. Yuqorida taklif etilgan o'zgartirishlar shaxsning "raqamli o'tmish" asirasiga aylanib qolmasligini ta'minlash bilan birga, jamiyatning axborot olish erkinligi o'rtasidagi adolatli muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya davrida "unutilish huquqi"ning qonuniy tan olinishi O'zbekistonning demokratik huquqiy davlat sifatidagi xalqaro nufuzini yanada mustahkamlaydi. Jamoat figuralari uchun unutilish huquqi mutloq bo'lmasligi kerak. O'zbekiston qonunchiligida **"ijtimoiy ahamiyatga molik axborot"** va **"shaxsiy hayot siri"** o'rtasidagi chegara aniq belgilanishi zarur. Agar ma'lumot jamiyatning siyosiy yoki ijtimoiy qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatsa, u "jamoat manfaati" deb baholanishi va qidiruv tizimlarida qolishi lozim. Aksincha, shaxsning o'tmishdagi arziyas xatolari yoki shaxsiy hayotiga oid detallar, agar ular bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmasa, "unutilish" imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Kiberxavfsizlik sohasida O'zbekiston qonunchiligi bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun muallif tomonidan quyidagi takliflar beriladi:

1-Taklif: "Indeksatsiyadan chiqarish" (De-indexing) mexanizmini qonuniy mustahkamlash. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga ma'lumotlarni nafaqat yo'q qilish, balki ularni qidiruv tizimlari natijalaridan olib tashlash (indeksatsiyadan chiqarish) majburiyatini kiritish lozim.

2-Taklif: "Jamoat figurasi" (Public figure) tushunchasiga huquqiy filtr o'rnatish. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori yoki qonunosti hujjati darajasida "jamoat figurasi" va "oddiy fuqaro" o'rtasidagi huquqiy chegara belgilanishi lozim.

3-Taklif: Arizalarni ko'rib chiqishning sudga qadar soddalashtirilgan tartibini joriy etish. Fuqarolarning raqamli ma'lumotlarini o'chirish bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqish uchun maxsus ma'muriy tartib ishlab chiqish. Misol uchun: Fuqaro dastlab qidiruv tizimi operatoriga murojaat qilishi, operator esa 15 kunlik muddatda asosli javob berishi shart. Agar rad etilsa, vakolatli organ (masalan, Personallashtirish agentligi yoki Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi inspeksiya) sudga qadar nizoni ko'rib chiqishi va majburiy ko'rsatma berishi huquqini qonuniy belgilash lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://minjusttraining.uz/news/raqamli-davrda-shaxsiy-malumotlarni-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>
2. \$^113\$ Google Spain SL, Google Inc. v Agencia Española de Protección de Datos (AEPD), Mario Costeja González (2014), C-131/12. (Yevropa Ittifoqi Adliya sudi qarori).
3. <https://www.carter-ruck.com/blog/google-v-spain-eu-backs-right-to-be-forgotten/>
4. Kiber huquq. O'quv qo'llanma. Abdixakimov Islombek Bahodir o'g'li. – T.: TDYU nashryoti, 2025. – 405-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir).
6. <https://gdpr.eu/right-to-be-forgotten/>
7. <https://archive.epic.org/privacy/right-to-be-forgotten/>
8. <https://gdpr.eu/right-to-be-forgotten/>
9. <https://gdpr-info.eu/art-17-gdpr/>
10. <https://jolt.law.harvard.edu/digest/russias-right-to-be-forgotten-and-chinas-right-to-be-protected-new-privacy-and-security-legislation>
11. Kiber huquq. O'quv qo'llanma. Abdixakimov Islombek Bahodir o'g'li. – T.: TDYU nashryoti, 2025. – 153-b.